

TIFLOPEDOGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI

Erkinboyeva Dilnura Sardor qizi

CHDPU Maxsus pedagogika: Tiflopedagogika

yo`nalishi 1-kurs talabasi,

Pedagogika fakulteti tyutori

Xalimov Sunnat Chuliyevich

Anatotsiya: Tiflopedagogikaning fan sifatida shakllanishiga asos bo`lgan davrlar haqida qisqacha ma`lumot, fanga asos solgan va rivojlantirgan olimlar, O`zbekistonda tiflopedagogika rivojlanishi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Tiflopedagogika, ko`zi ojizlik, ko`zi ojizlar, pedagogik, teri tuyish, Parij boshpanasi, pedogog, L. Brayl, maktab.

Mamlakatimizda inklyuziv ta`lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta`lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta`minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me`yorlari ishlab chiqilgan “Alohida ta`lim ehtiyoji bo`lgan bolalar uchun inkyuziv ta`limni tashkil etish maqsadida ta`lim muassalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o`quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog`lomlashtiruvchi sifatli ta`lim xizmatlari, imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi.

Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos-ko'r) umumiy pedagogikaning bir tarmog'i sifatida falsafa, gumanistik ta`lim tamoyillari va o`qitishning umumiy didaktik tamoyillari asosida, ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar va kattalar rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan.

Didim Iskandariy ko`zi ojizlar orasida eng mashhuri edi. U besh yoshida ko`rish qobiliyatini yo`qotgan va keyin yog`ochdan yasalgan harflar orqali arab

alifbosini o'rgangan. 50 yildan ortiq vaqt davomida Iskandariyadagi maktabni boshqargan.

O'rta asrlarda doimiy ichki urushlar, chechak epidemiyasi va traxomalarning tarqalishi bilan qanday kurashishni bilmagan Yevropada ko'zi ojizlar ko'payishiga olib keldi.

Tarixchilarning ta'kidlashicha, Yevropada IX-XII asrlarga kelib ko'zi ojizlar soni ko'paygan, Fransiya va Angilyada "Birodarlar" guruhi yaratilgan. Uning vazifasi birodarlik a'zolari o'rtasida sadaqa so'rash joyi va vaqtini tartibga solish edi.

Ilk o'rta asrlarga kelib, Yevropa mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va yaqin Sharqda, xususan, qayerda Islom dini bo'lsa, o'sha yerda ko'zi ojizlarninga ijtimoiy mavqei, holati biroz boshqacha tus oldi.

Islom dinida ko'zi ojizlar el qatori ko'rilgani uchun ularga bilim olish, yuqori ijtimoiy mavqega erishish va falsafa, adabiyot va qadimgi Sharqning boshqa gumanitar fanlari bilan shug'ullanish imkoniyati bor edi. Bunga X-XI asrlarda yashab o'tgan, to'rt yoshida ko'zi ojiz bo'lib qolgan arab faylasufi va shoiri Abul'alo Ma'riyning ilmiy faoliyati misol bo'la oladi. Mashaqqatli mahnat orqali lug'atlarni yodlagan va o'z ona tili grammatikasini puxta egallagan. U qadimgi Yunoniston tarixi, falsafasi va ma'daniyatini yaxshi bilgan. Abul'alo Ma'riy 30 dan ortiq ilmiy maqolalar yozgan, ularning aksariyati salb yurishlari paytida yevropaliklar tomonidan yo'q qilingan.

XII asr oxrlarida Yevropa davlatlarida ham ko'zi ojizlar uchun boshpana yaratila boshladi. Ulardan eng qadimgisi Bavariya va Parij boshpanalaridir. Bavariyada kattalar uchun birinchi boshpana 1198-yil tashkil qilingan.

1225-yilda Luvr yaqinidagi Parijda Lui IX tomonidan 300 nafar ko'zi ojizlar uchun boshpana ochildi. Keksa ko'zi ojizlar uchun bir qator yirik manastirlar qoshida boshpanalar ochildi.

XV-XVIII asrlarda insonga qiziqish, uning jamiyatdagi maqsadi va o'rni keskin oshdi, bilimga ega odamlarga talab oshdi. Ijtimoiy va pedogogik fanlar

sohasida ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'qitish usullarini tubdan qayta ko'rib chiqadigan ta'limiy qarashlar paydo bo'ldi.

Ushbu yangi pedogogik g'oyalar Tomos Morning qarashlarida, rotterdamlik Erazm, Komenskiy, Lokk va boshqalarning ta'limotlarida aniq aks ettirilgan. Ko'zi ojizlar uchun elementar ta'lim, unda "axloq" va "dunyo qarash"ni tarbiyalash imkoniyati g'oyasi ilgari surildi.

Palermo(Italya)da 1662-yilda 30 nafar ko'zi ojiz kishilar uchun kichik musiqa maktabi paydo bo'ldi. Ushbu maktab tashkilotchilari (ko'zi ojizlarning o'zlari) USTAVni ishlab chiqdilar, unga ko'ra ko'zi ojizlar uchun tilanchilik sharmandalik, ko'zi ojizlar ham mehnat qilishga majburdirlar. Ushbu maktab nisbatan qisqacha umr ko'rgan bo'lsada, ko'zi ojizlar uchun professional muassasalarning rivojlanishida o'rni juda katta. Ko'zi ojizlar uchun ta'limni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam ba'zi jamoat arboblarning teri-tuyish orqali yozish va o'qitish usullarini taklif qilishga urinishar edi.

Keyinchalik eng keng tarqalgan usul mm qog'ozga oddiy harflarni o'tkir uchli tayoqcha bilan yozish edi. Ushbu yozish usuli ko'rlar uchun uncha foydali emas edi. Bu ularning teri tuyish sezgi xususiyatlarini hamda imkoniyatlarini hisobga olmadi. Ko'zi ojizlar yozuvining rivojlanish tarixida Franchesko Lanenig nuqta shriftini tarqatishga urinishi muhim o'ringa ega edi, u teri tuyish sezgisining ba'zi xususiyatlarini o'rganib chiqib, o'n iki nuqta konbinatsiyasi asosida o'z shriftinni taklif qildi. Taklif etilgan shrift keng qo'llanmadi lekin F. Lanening shrift Brayl yozuvini yaratishda ijobiy rol o'ynadi, hozirda dunyoning aksar ko'zi ojizlari brayl yozuvidan foydalanadi.

Tiflopedagogikani o'rganish tarixi 1784-yilda Parijda ko'zi ojiz bolalar uchun birinchi davlat maktabi ochilishi bilan bog'lash lozim. Unga fransuz tili o'qituvchisi, tiflopedagogika asoschisi Valentin Gayuy (1745-1822) asos solgan. U ko'zi ojizlarni tizimli ravishda o'qitish va tarbiyalash tashabbusi bilan chiqdi, bu bolalar bilan ishlashning mazmuni va usullarini ishlab chiqdi.

L. Brayl (1809-1852) uch yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotgan, Parij Milliy ko'zi ojizlar institutining o'quvchisi, so'ngra tiflopedagogi ko'zi ojizlarni

o'qitish tizimini o'zgartirgan ixtiro muallifi bo'ldi. Olti nuqta kombinatsiyasiga asoslangan Brayning nuqtali yozuv tizimi alifbo, matematik va boshqa belgilarni qamrab olgan bo'lib, ko'zi ojizlarga erkin o'qish va yozish imkonini beradi. Brayl alifbosi bosilishi 1852-yilda Fransiyada boshlangan.

Ko'zi ojizlar uchun dastlabki o'quv muassasasi Tiflopedagogika fani asoschisi fransuz pedagogi V. Gayui tomonidan 1784 - yilda Parij shahrida tashkillashtirilgan. XVIII-XIX asrda ko'zi ojizlar uchun bunday maktablar Buyuk Britaniyada, Avstraliyada, Germaniyada va AQSh da tashkil qilingan. Ko'zi ojizlar uchun tashkil qilingan bunday maktablarda o'quvchilar yozuv, o'quv, hisob- kitob, eng oddiy hunarmadchilik va musiqaga o'qitilgan . XIX asr o'rtalarida ko'zi ojizlar uchun o'qish va yozishda L. Brayl tomonidan 1829 - yilda ishlab chiqilgan relefli, nuqtaviy shrift varianti tarqaldi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan. Ko'p sonli relefli va relefli - nuqtaviy alifbodan L. Brayl shrifti o'quv va yozuv uchun sonlarni belgilash va nota belgilari uchun eng samarali bo'lib chiqdi.

Fransiyalik o'qituvchilar togaragi rahbarlaridan biri Deni Didro ko'zi ojizlarni o'qitish g'oyasini nazariy asoslashda muhim rol o'ynadi. 1749-yilda Deni Didro ko'zi ojizlar tog'risida "Ko'zi ojizlar to'g'risida maktublar" kitobini nashr ettirdi. Muallif asarda nafaqat boshlang'ich savodxonlikni, balki mustaqil yashash imkoniyatini beradigan kasbni ham o'zlashtirgan, yuqori intellektual rivojlanishga erishgan ko'zi ojizlarning hayoti va faoliyati haqida gapiradi.

Rossiyada ko'zi ojizlar uchun birinchi maktab 1807 - yilda Peterburg shahrida ochilgan. Tiflopedagogikaning rivojlanishi va ko'zi ojizlar ta'limi tizimining Rossiyada tarqalishi K.Krot, A.I.Skrebiskiy va boshqalarning nomlari bilan bog'liq. Ko'zi ojizlar maktablarining bitiruvchilari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 3-4 sinflari va hunarmandchilik tayyorgarligi hajmida ta'lim olingan. Ushbu muassasalarda ko'zi ojiz bolalarning 4- 5% gina ta'lim olgan. Sobiq Sovet Ittifoqida ko'zi ojiz bolalarning ta'lim olishi umumdavlat Xalq ta'limi tizimiga kiritilgan.

1929-yil O'zbekistonda markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyevning sa'y-harakatlari bilan Toshkentda ko'zi ojizlar maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 20 kishi ta'lim oldi. 1930-1931-o'quv yilida ta'limi o'zbek tilida olib boriladigan ko'zi ojiz bolalar 1-sinfining ochilishi muhim siyosiy voqea hisoblandi. 1930- yillar oxirlariga kelib, Qo'qon va Buxoroda ham huddi shunday maktablar ochildi. 1931-yil nuqsoni bolalarni majburiy ta'limga jalb etish haqida qaror qabul qilindi.

Hozirda O'zbekistonning turli hududlarida 17 ta ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun mo'ljallangan o'quv muassasalari faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarida 3500 dan ortiq o'quvchilar ta'lim tarbiya olmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 – fevraldagi “O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi to'g'risida”gi PF – 4947 – sonli farmoni.
2. Qodirova.F.U.,Xusniddinova.Z.X./Maxsus pedagogika asoslari/ Darslik – Toshkent.: “Zebo Prints”,2023.
3. D.M.Sultonova L.Sh.Nurmuxamedova Sh.M.Amirsaido MAXSUS PEDAGOGIKA (TIFLOPEDAGOGIKA) Toshkent-2007
4. N.Z.Abidova Uzluksiz ta'lim va maxsus pedagogika (Tiflopedagogika) Toshkent -2022
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 – fevraldagi “O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi to'g'risida”gi PF – 4947 – sonli farmoni.
6. Qodirova.F.U.,Xusniddinova Z.X./Tiflopedagogika/ Darslik – Toshkent.: “Zebo Prints”,2023.